


Yoʻnalishni topish

Yoʻnalishni topish – bu qayerda turganingizni aniqlashni bilish. Yoʻnalishni topishning bir necha usullari bor.




1. Xaritadan foydalanish

Xarita – Yer yuzasining tasviri boʻlib, unga qarab qayerda turganingizni aniqlashingiz, atrofingizda nimalar borligini koʻrishingiz mumkin. Shuningdek, xaritada daryolar, yoʻllar, tepaliklar va shu kabi boshqa joylarni topish mumkin.



2. Quyoshga qarab yo'l topish

Quyosh sharqdan chiqib, g'arbga botadi. Quyosh ertalab soat 7 da sharqdan chiqsa, kechqurun soat 7 da u g'arbda bo'ladi. Agar ertalab quyoshga o'ng tomoningiz bilan qarab turgan bo'lsangiz, demak, old tomoningiz shimol, orqa tomoningiz janub, chap tomoningiz esa g'arb bo'ladi.



3. Yulduzlarga qarab yo'l topish

Kunduzi quyosh yordamida yo'lni topish mumkin bo'lsa, kechasi eng yaxshi mo'ljal – bu yulduzlar. Qadim zamonlardan buyon dengizchilar va sayyohlar Qutb yulduziga qarab yo'nalishni belgilashgan, chunki Qutb yulduzi doim shimol tomonda bo'ladi. Kechasi Qutb yulduzi tomonga qarab yursangiz, shimolga ketayotgan bo'lasiz.



4. Kompasdan foydalanish

Kompasning strelkasi doim shimol tomonni ko'rsatib turadi. U bizga qaysi yo'nalishda harakatlanayotganimizni aniqlashda yordam beradi. Kompasning strelkasiga qarab yo'nalishni tanlash mumkin.



1. Kunduzi, yorug' paytda yo'nalishni topishning qaysi usulini qo'llaysiz?
2. Kechasi shimol tomonga qarab yurish uchun qaysi usul yordam beradi?
3. Yo'nalishni aniqlash uchun kompasdan qanday foydalaniladi?
4. Xaritada qanday ma'lumotlar ko'rsatilishi mumkin?

Kompassiz yo'nalishni qanday topish mumkin?

Kompas ixtiro qilingunicha yo'nalishni topish uchun odamlarga tabiatning o'zi yordam berib kelgan.

Masalan, o'rmonda daraxtlarning shoxiga, chumoli inlariga, moxlar daraxtning qaysi tomonidan o'sganiga qarab shimol yoki janubni aniqlash mumkin bo'lgan.

O'rmonda dunyo tomonlarini kompassiz shunday aniqlash mumkin

Daraxtlarda o'sgan moxlarni toping. Ular doim shimol tomonda o'sadi.

Daraxtlarga qarang. Janub tomonda shoxlar ko'proq bo'ladi.

Tepalikka qarang, shimol tomondagi qor uzoq vaqt erimay turadi.

